

ABDULLA QODIRIYNING “MEHROBDAN CHAYON”
ROMANI TAHLILI

Ismonova Yorqinoy Abdumatalib qizi

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU,
O‘zbek adabiyoti 10.00.02 ixtisosligi bo‘yicha
2-bosqich Tayanch doktoranti,
ismonovayorqinoy@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romani tahlilga tortilgan. Yozuvchining badiiy tili, so‘zlardan unumli va jozibali, o‘ziga xos uslubda foydalanish mahorati, romandagi obrazlarning ta’rif va tasnifi, so‘zlar bilan uyg‘unligi haqida gap boradi.

Kalit so‘zlar: mehrob, roman, obraz, personaj, qahramon, adabiyotshunos, tadqiqotchi, tarjimon.

Abstract: In this article, the novel “The Scorpion from the Altar” by Abdulla Qadiri is analyzed. It is about the writer’s artistic language, the ability to use words effectively and attractively, in a unique way, the description and classification of the characters in the novel and their harmony with words.

Key words: mihrab, novel, image, character, hero, literary critic, researcher, translator.

Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romani juda ko‘plab adabiyotshunos olimlar, yozuvchi, tadqiqotchilar va hatto tanqidchilar tomonidan tahlil va talqin qilingan. Chunki har bir adabiyot ihlosmandi borki, ushbu asar uning e’tiboridan chetda qolib ketmaydi, albatta. Adabiyotshunos olimlardan biri, yozuvchi va tarjimon Miyon Buzruk asar haqida shunday deydi: “**Mehrobdan chayon**” yolg‘iz

Julqunboyning ikkinchi asari emas, balki yangi o‘zbek adabiyoti uchun ham ikkinchi roman edi. Hamza Hakimzodaning “Milliy ro‘mon” nomli kichik bir asari bo‘lsa-da, unga bu kungi ro‘monchiliq sharoitida ro‘mon demak tog‘ri bo‘lmasdi. Yangi ro‘mon va hikoyalarg‘a mushtoq-chanqoq bo‘lg‘on davrimizda “O‘tkan kunlar”i bilan tanilg‘on Julqunboyning “Mehrobdan chayon”i juda ham shoshilib kutilar edi va juda ahamiyat bilan qarshilang‘oni-da ko‘rildi”.³⁰

Asar tahlili avvalida, **mehrob** so‘zining ta’rifini keltirib o‘tishni joiz deb bildik. *Mehrob* bu masjid ichida uning qibla tomonidagi devorida taxmon shaklida qurilgan joy, namoz shu tomonga qarab o‘qiladi; joyning yuqori, to‘r qismi degani.

Asar boshida Solih mahdum³¹ ning to‘ng‘ich farzandi ya’ni qizi Ra’no ikki ukasining o‘rtasiga tushib, yer supurib yotkan soch o‘rimlarining tuproqqa belashgani bilan ham xabarsiz ukalarining loy o‘yinida ishtirok etishiga guvoh bo‘lamiz. Vaholanki, ukalari bilan “loy o‘yini” o‘ynashga berilib ketgan 16-17 yoshdagি bo‘yi yetgan qizning qalbida hali bolalik shukuhi, o‘yinqaroqligi tark etmagan edi. Lekin endi u yosh bola emasligini va unga bunday ishlar yarashmasligini eslatib qo‘yan otasi Ra’noga shunday deydi : “- *Balli Ra’no ana jinnilik! -... atlas ko‘ylak senga hayf, senga bo‘zdan boshqasi albatta hayf! Ukalaringni bola desam sen ulardan ham oshib tushasan!*” Biroq ushbu gap Ra’noning beg‘ubor bolako‘ngil ekanligini va buni otasi tomonidan ham tan olinganligini ko‘rsatgan.

Keyingi jumlada mahdum qizini koyib shunday deydi: “- *ishing bo‘lmasa kitob o‘qi, husnihat ol, sen kulol qizi emassanki...*”. Bu gaplar orqali yozuvchi mahdumning farzandlari ham albatta o‘qimishli, savodxon bo‘lishi kerakligini ta’kidlagan.

“Adabiyot – xarakterlar yaratish san’ati” va ayni chog‘da ana shu xarakterlar “...dilini bilish, uning sirlarini bizga ochib ko‘rsatish – asarlarini biz maroq bilan qayta-qayta o‘qiydigan yozuvchilarning har biriga beriladigan ta’rifdagi birinchi

³⁰ Miyon Buzruk. O‘zbek adabiy tanqidi. Mehrobdan chayon. -Toshkent: “Turon-iqbol”, 2011. – B.12-13.

³¹ **Mahdum (mahsum)** (arabcha: ishga oluvchi, yollovchi)- ulamo va ruhoniylar, pir va ustozlarga beriladigan unvon, laqab va shu unvonga ega bo‘lgan kishi.

so‘zlar shular-ku, axir” (N.G.Cherchinevskiy).³² Asar qahramonlaridan biri Solih mahdum obrazi o‘ziga xos va xarakterida turlicha ham salbiy ham ijobiy hislatlar mavjud. Masalan, mahdumga eng ko‘p keltirilgan ta’rif bu uning xasis va ziqlaligidir. Bu xasislik haddan ziyod bo‘lib, uning oilasi va hatto o‘zining ust boshiga bo‘lgan qizg‘anishlaridan ham ko‘rishimiz mumkin. “*Ko‘ylak-ishtonning aksar yetti-sakkiz joyidan yamog‘i bo‘ladur. Yetti qishdan beri guppi- chopon yangilangani ma’lum emas, faqat qish kelib ketgan sayin alak guppining yengi o‘zgaribgina turadir va astari yil sayin yangidan yangi yamoqlar bilan boyiydir...*”.

Mahdumning ayoli Nigorxonim juda sabrli, qanoatli ayol bo‘lgan va erining bunday “past” xarakteriga chidab yashagan. Ammo mahdumning onasi Mohlar oyim o‘g‘lining ziqla va tor fe’liga chiday olmay Marg‘ilonga ketib qoladi hamda o‘scha yerda vafot etadi. Otasining bunday “qattiq”ligidan achchiqlangan Ra’no esa unga atab she’r ham bitadi.

*Yog‘lar to‘kilsa yerga, yotib yalar taqsirim,
Bo‘lsa bozorda pastlik, sotib olar taqsirim.

Menim uchun bir zirak, Ra’nobonug‘a jevak,
Desa oyim – “Ne kerak?!” yumma talar taqsirim.

“Quloq teshish fazl emas, pulni topish hazl emas,
Jevak taqish farz emas!” g‘avg‘o solar taqsirim.*

Albatta, mahdumning bunday xasisligi ortida uning og‘ir qiyinchilik, qattiqchilikda, qolaversa yetimlikda o‘sganligi sabab qilib ko‘rsatilgan. Biroq, mahdumda ta’magirlik va ichiqoralik kabi hislatlarni ham ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, u o‘zi ta’lim berayotgan bolalarga “*payshanbalik*” (**har payshanbada o‘quvchilar tomonidan domla yoki otinbibiga keltirilgan haq, pul, don, non kabi**), “*bo‘ryo puli*” (**remont uchun pul**), “*supurgi puli*” (**o‘quvchilarni o‘qitganlik uchun olinadigan pul**), “*ozodlik puli*” (“**qul yashar**”, “**abjad**” so‘zini yozishni o‘rgangan bolani **qo‘li boylab uyiga jo‘natilgan** va “**qo‘l yasharlik**” olib kelgan) kabi ajoyib ajoyib soliqlar solar va ularni vaqtidan kechiktirmay olishga harakat qilar

³² Hotam Umurov. O‘zbek adabiy tanqidi. O‘zbek romanida psixologizm printsiplari, shakllari va vositalari. – Toshkent: “Turon-iqbol”, 2011. – B.238.

edi. Lekin uning bolalarga yoqadigan hislati ham bor. Ya’ni Solih mahdum bilimdon o‘quvchilar bilan muomilasi yaxshi, sabog‘ini bilmagan yoki sho‘xlik qilgan bolalarini urushib koyisa ham aslo urmas edi. Bu hislati bilan u butun Qo‘qon bolalarining muhabbatini qozongan. Mahdumning bunday xarakterga ega ekanligi kimningdur g‘ashini keltirsa, yana kimdadur kulgi uyg‘otadi. Yozuvchi esa Solih mahdum obrazi orqali aslida hayotda manashunday insonlar ham bor ekanligini ko‘rsatib bergan.

Asarning yorqin obrazlaridan biri - Ra’noga ta’rif berilar ekan, unga zidlab, Lola ismli qiz misol keltiriladi. Vaholanki, Lola ham Ra’no ham nafis va bir biridan go‘zal bo‘lgan gullarning nomi bo‘lib, bu nomlar qiz bolaga ism qilib qo‘yilganda, albatta uning husni-jamoliga mengzalgan. Lekin Abdulla Qodiriy Lola ismli qizning husnu-jamoli ismiga monand emasligidan “shikoyat” qiladi: - “...*Lola ismining ostida bir malakni ko‘rgan: “Lolaning ismiga o‘xshash husni ham bor”, - deb o‘ylagan edim. Burnidagi buloqisidan boshqa (agar buloqi husnga qo‘shilsa) “Lola”likka arziydigan hech gap yo‘q edi. Bir necha kunlar bu qizning otini “Lola” deb qo‘yg‘anlari uchun achchig‘lanib yurdim*”. Ra’noning esa ismi – jismiga yoxud husniga juda muvofiq tushganligini ta’kidlab adib shunday deydi : “*Men rassom emasman. Agar menda shu san’at bo‘lg‘anda edi, so‘z bilan biljirab o‘lturmas, shu o‘runda sizga Ra’noning rasmini tortib ko‘rsatar, qo‘yar, faqat menga Ra’no gulining suvigina ko‘proq kerak bo‘lar edi*”. Ra’no nafaqat husni bilan balki aqlu zakovati, ziyrak va hushfe’lligi, qolaversa jasurligi bilan ham kishini havasini keltiradigan qiz. Adabiyotshunos olim Izzat Sulton Ra’no obraziga juda chiroyli ta’rif bergan: - “**Abdulla Qodiriy Sharq xotin-qizlarining ozodlik harakatiga xayrixoh bo‘lmay qololmas edi va uning tomonidan yaratilgan Ra’no obrazi o‘scha oliyjanob maqsadga xizmat etar edi. Muallifning “Ra’noning jasorati, xonga qarshi isyoni, hatto ma’yus qolgan Anvarni yo‘lga solishi – o‘z zamonasi uchungina emas, balki bizning hozirgi asrimiz uchun ham loyiqi tahsin va Ra’no yoshidagi qizlarimizga ibratdir deb qayd etishi tasodifiy emas**”. Faqat shuni qo‘shimcha qilish kerakki, Ra’no obrazining yaratganda Abdulla Qodiriy yangi

hayot yo‘liga “otilib chiqqan” xotin-qizlarimizning jasoratidan ham ilhomlanganlar”.

Sharq xalqlari adabiyotini yaxshi o‘rgangan olimlardan biri L.Klimovichning quyidagi mushohadasi juda to‘g‘ri va nozikdir: “Ra’no obrazi juda maroqlidir. Bu qiz – go‘zal, ma’rifatli. Uning ko‘p sharq asarlari qahramonlariga xos boshqa xislatlari ham bor. Ammo Ra’noning ishlari va e’tiqodlari qadim adabiyotning an’analariga tamoman qarama-qarshidir”.³³

Asarning bosh qahramoni Anvar obraziga keladigan bo‘lsak, Qodiriy ushbu obraz orqali sabrli, matonatli, sadoqatli, sofdil, kamtar, mard-jasur, olivyjanob, zehnli va o‘qimishli, bir so‘z bilan aytganda komil inson obrazini ko‘rsatib berishga harakat qilgan. Anvar tug‘ilganidan hayot achchiqlarini totib ulguradi. Uning dunyoga kelishi ota-onasi tomonidan hursanchilik bilan kutib olinmaydi va hatto 20 kunlab ismsiz qolgan bolaga 12 yoshli opasi Nodira tomonidan ism qo‘yiladi. Nodira mahallasidagi mahdumning bolasiga havas qilgan va uning ismini ukasiga qo‘ygan. Buni qarangki, kelgusida Anvar ham taqdir taqazosi bilan aynan mahdumga asrandi farzand bo‘ladi.

Kambag‘allik va qiyinchilikda o‘sgan Anvar 6 yoshida onasidan ayrıldi. Ungacha esa otasi va 2 akasidan ham ayrılgan edi. 12 yoshda Anvar 3 oilani ko‘rib ulguradi va opasining iltimosi bilan mahdumning oilasiga asrandi o‘g‘il bo‘lib qoladi. 11 yoshida savodi chiqgan va 13 yoshida maktab programmasini tugatib, ustoziga xalfa ya’ni yordamchi bo‘lgan Anvar tezda atrofdagilarning mehrini va e’tiborini qozonadi. U 15 yoshida arab va fors tillarini mukammal bilgan va maktabni boshqarishda ustoziga yordam bergen.

Shu o‘rinda Anvar obraziga Abdurahmon obrazini taqqoslashimiz mumkin. Anvar Salim bo‘yoqchining yetimi, faqir bir oiladan chiqqan bola. Abdurahmon esa ulamolar naslidan, otasi ham ziyoli, amakilari esa Buxoroning katta mudarrislaridan bo‘lgan. U ham 15 yoshgacha Solih mahdumning qo‘lida ta’lim oladi. Lekin bu ikki yigitning biri xalq sevgan va hatto xon nazariga tushgan mirzaboshi bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchisi ichi qora, ig‘vogar, 18 yoshga yetmay ko‘plab nomaqbul ishlarga qo‘l

³³ Izzat Sulton. O‘zbek adabiy tanqidi. Abdulla Qodiriy va uning “Mehrobdan chayon” romani. – Toshkent: “Turon-iqbol”, 2011. – B.70.

urgan ohir oqibatda esa “mehrobdagi chayon”ga aylangan. Abdurahmon obrazi orqali adib ayrim hudbin, qallob, hasadgo‘y, munofiq, e’tiqodsiz va tuban kimsalarning asl yuzlarini ochib berishga va ularning muqaddas dargoh – sajdagohdan turib turli jirkanch ishlarga qo‘l urganliklarini ko‘rsatib berishga muvaffaq bo‘lgan. Asar nomi “Mehrobdan chayon” deb atalishi ham bejiz emas. Ta’kidlab o’tkanimizdek, mehrob bu masjid ichidagi sajdagoh joyidir. Chayonning ishi esa hammaga ma’lum bo‘lganidek faqat chaqish, zaharli nishini kimgadur yoki nimagadur urish va jarohat yetkazishdir. Ushbu asardagi “chayon” ya’ni Abdurahmon ham o‘z nomiga munosib faqat va faqat yomonlik ketidan quvgan razil bir kimmsadir. Bu borada unga sherik bo‘lgan Shahodat mufti va Kalonshoh mirzolar ham bor. Bu obrazlar ham garchi sajdadan bosh uzmaydigan, o‘zicha “xudojo‘y” bo‘lishsada, aslida qalbi ig‘vo va razolatga to‘la kimsalardir. Ularni ham “mehrob chayonlari” deb atasak mubolag‘a bo‘lmaydi.

“Hozirgi kunda har bir asar, xususan, adabiy va ijtimoiy asarlarda mafkura jihatni juda ham ziyraklik bilan tekshiriladi. Buning bilan madaniyatda orqada qolg‘on va fikriy yo‘lda o‘sib yetmagan bir xalqqa fikriy tashvish va buzuqlik beradigan hollarg‘a yo‘l qo‘ymaslik uchun sa’y qilinadi. Bu yaxshi. Asosli va idialniy bir tadbir”, deydi Miyon Buzruk. **“ Lekin yangi mafkura va yangi yo‘Ining ruh va mohiyatini anglab va uni hazm qilib va unga komil tusda rioya qila borish uchun ilmiy va adabiy kuchlar kifoya qilmay turadilar. Bu yo‘lda kuchlanib va kuchanib, taqlid bilan qiling‘on ishlar ko‘plari muvaffaqiyatli chiqmoqlarini ko‘ramiz. Bu kayfiyatni “Mehrobdan chayon” asarida ham ko‘ramiz”.** Zero, roman chinakam mafkuraga xizmat qiladi deb ayta olamiz. Ayniqsa unda do‘stlik, hamjihatlik,adolat, haqiqat, jasurlik, sadoqat, mardlik kabi juda ko‘plab insonning olivjanob hislatlari yaqqol ko‘rsatib berilgan. Bu ta’riflarga avvalo, Anvar shuningdek, Ra’no, Sultonali, Safar bo‘zchi, Nasim, Qobil, Rahim, Sharif kabi obrazlar misol bo‘la oladi.

Ijtimoiy mazmun va bu mazmunning zamonaviyligi, faolligi kabi ajoyib fazilatga Abdulla Qodiriy ijodida yana bir fazilat qo'shildi: uning ijodi demokratik, xalqchildir.³⁴

Qodiriy asar personajlari qismati bilan bog'liq holda muhim tarihiy hodisalar, shaxslar, sarguzashtlar haqida ham ma'lumot beradi. Solih mahdumning kechmishi, ota-bobolari qismati bahonasida keltirilgan Amir Umarxonning kanizi to'g'risidagi hikoya, haq ishlari uchun jabr ko'rgan Sayidxon, mulla Siddiq va Mo'minjonlarning achchiq qismati, Xudoyorxon tarixi to'g'risidagi ma'lumotlar, Og'acha oyim sarguzashtlari, xon harami, xotinlar, o'rdadagi qullar haqidagi aniq ma'lumotlar asarda salmoqli o'rinn tutadi. Yozuvchi ba'zan qahramonlari tabiatini, xususan xaramdagagi qizlar fojiasini hazil-mutoyiba, o'yin-kulgi orqali ochib beradi. Ammo bu kulgili bo'lib tuyulgan hodisalar zamirida jiddiy insoniy drama va shafqatsiz haqiqat yotadi. Xullas, "Mehrobdan chayon" hayot haqiqatini "orttirmay va kamitmay" o'z holicha jamiki qirralari bilan gavdalantirgan, xarakterlar olamini, ruhiyatini o'ziga xos ohanglar, bo'yoqlar vositasida tasvirlab bergen tengi yo'q badiiy obidadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdulla Qodiriy "Mehrobdan chayon" Toshkent-2019.
2. O'zbek adabiy tanqidi Toshkent "Turon-Iqbol" 2011.
3. Hotam Umurov. O'zbek adabiy tanqidi. O'zbek romanida psixologizm printsiplari, shakllari va vositalari. – Toshkent: "Turon-iqbol", 2011. – B.238
4. Miyon Buzruk. O'zbek adabiy tanqidi. Mehrobdan chayon. -Toshkent: "Turon-iqbol", 2011. – B.12-13.
5. Izzat Sulton. O'zbek adabiy tanqidi. Abdulla Qodiriy va uning "Mehrobdan chayon" romani. – Toshkent: "Turon-iqbol", 2011. – B.70.

³⁴ Ko'rsatilgan manba.